


## Korxonalar va tashkilotlar (2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yilning yanvar-noyabr oyida Xorazm viloyatida 2133 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 549 taga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1141ta (8,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14815 tani tashkil etgan.


### Korxona va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, hayotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda**




**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning  
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,8 % savdoda, 16,3 % sanoatda, 10,1 % qurilishda, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,9 % yashash va

ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,8 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 1,5 % axborot va aloqa, 28,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning  
hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) birlikda




**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) birlikda

|                        | Ro'yxatdan<br>o'tgan | Faoliyat<br>ko'rsatayotgan | <i>2018-yil 1 dekabr holatiga</i> |                                  |
|------------------------|----------------------|----------------------------|-----------------------------------|----------------------------------|
|                        |                      |                            | Ro'yxatdan o'tgan,<br>%           | Faoliyat<br>ko'rsatayotgan,<br>% |
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>15772</b>         | <b>14815</b>               | <b>100</b>                        | <b>100</b>                       |
| Urganch sh.            | 3918                 | 3545                       | 24,8                              | 23,9                             |
| Xiv ash.               | 1433                 | 1375                       | 9,1                               | 9,3                              |
| <i>tumanlar:</i>       |                      |                            |                                   |                                  |
| Bog'ot                 | 781                  | 758                        | 5,0                               | 5,1                              |
| Gurlan                 | 916                  | 881                        | 5,8                               | 6,0                              |
| Qo'shko'pir            | 917                  | 889                        | 5,8                               | 6,0                              |
| Urganch                | 1622                 | 1524                       | 10,3                              | 10,3                             |
| Xazorasp               | 1103                 | 1071                       | 7,0                               | 7,2                              |
| Xonqa                  | 1175                 | 1146                       | 7,4                               | 7,7                              |
| Xiva                   | 1525                 | 1412                       | 9,7                               | 9,5                              |
| Shovot                 | 772                  | 676                        | 4,9                               | 4,6                              |
| Yangiariq              | 1027                 | 979                        | 6,5                               | 6,6                              |
| Yangibozor             | 583                  | 559                        | 3,7                               | 3,8                              |

2018 yil yanvar-noyabr oylarida 2133 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 34,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (542 ta), Urganch tumani (259 ta), Xiva shahrida (198 ta) va Xonqa tumanida (171 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (74 ta), Gurlan (99 ta) hamda Yangiariq (116 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar  
va tashkilotlarning soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (508 ta), sanoatda (415 ta), qurilishda (215 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (206 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (31 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (48 ta) hamda tashish va saqlashda (72 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
 (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

|  | 2016 yil 1 dekabr<br>holatiga |                             |                               | 2017 yil 1 dekabr<br>holatiga |                             |                               | 2018 yil 1 dekabr<br>holatiga |                             |                               |
|--|-------------------------------|-----------------------------|-------------------------------|-------------------------------|-----------------------------|-------------------------------|-------------------------------|-----------------------------|-------------------------------|
|  | Jami                          | o'tgan yilga<br>nisbatan, % | umumiyl soniga<br>nisbatan, % | Jami                          | o'tgan yilga<br>nisbatan, % | umumiyl soniga<br>nisbatan, % | Jami                          | o'tgan yilga<br>nisbatan, % | umumiyl soniga<br>nisbatan, % |
| Savdo  | 437                           | 128,2                       | 29,8                          | 341                           | 78                          | 21,5                          | 508                           | 149,0                       | 23,8                          |
| Sanoat   | 327                           | 153,5                       | 22,3                          | 367                           | 112,2                       | 23,2                          | 415                           | 113,1                       | 19,5                          |
| Qurilish   | 143                           | 74,1                        | 9,7                           | 152                           | 106,3                       | 9,6                           | 215                           | 141,4                       | 10,1                          |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 132                           | 110,0                       | 9,0                           | 134                           | 101,5                       | 8,4                           | 204                           | 152,2                       | 9,6                           |
| Qishloq va o'rmon xo'jaligi                        | 118                           | 114,6                       | 8,0                           | 174                           | 147,5                       | 11,0                          | 206                           | 118,4                       | 9,7                           |
| Tashish va saqlash                                 | 51                            | 87,9                        | 3,4                           | 75                            | 147,1                       | 4,7                           | 72                            | 96,0                        | 3,4                           |
| Axborot va aloqa                                   | 39                            | 111,4                       | 2,7                           | 31                            | 79,5                        | 2,0                           | 31                            | 100,0                       | 1,4                           |
| Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 36                            | 124,1                       | 2,4                           | 52                            | 144,4                       | 3,3                           | 48                            | 92,3                        | 2,2                           |
| Boshqa turlari                                     | 186                           | 81,9                        | 12,7                          | 258                           | 138,7                       | 16,3                          | 434                           | 168,2                       | 20,3                          |

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy**

**faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
**(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**




**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi**  
**(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

2018 yil 1 dekabr holatiga 11871 tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4086ta, oilaviy korxonalar – 1207 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 6288 ta, va boshqalar 290 tani tashkil etadi.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha tijorat**


**korxonalarining umumiy soni**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**

2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko'ssatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 70 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 19 taga yoki 37,2 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'ssatayotgan korxonalardan 54 tasi qo'shma korxonalar, 16 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda



## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning assosiy qismi Urganch shahar 21 ta (30,0 %), Shovot tumani 12 ta (17,1 %) va Xiva shahar 6 ta (8,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xonqa 1 ta (1,4 %), Yangibozor 1 ta (1,4 %), Gurlan 2 ta (2,9 %) va Xazorasp 3 ta (4,3 %) tumanlari hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 dekabr holatiga ko'ssak eng ko'p sanoatda 42 ta (60,0 %), savdoda 13 ta (18,6 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (1,4 %), tashish va saqlashda 2 ta (2,9 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'gri keladi.


### **Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)**



2018 yilning yanvar-noyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 21 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 5 ta, Turkiya Respublikasi – 5 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 2 ta va 9 ta-boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-noyabr holatiga) birlikda**



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 8 ta, savdoda 5 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2 ta, qurilishda 1 ta, va boshqa faoliyat turlarida 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi**

|  | 2017 yil yanvar-noyabr |                         |                          | 2018 yil yanvar-noyabr |                         |                          |
|--|------------------------|-------------------------|--------------------------|------------------------|-------------------------|--------------------------|
|  | Jami                   | O'tgan yilga nisbatan % | Umumiy soniga nisbatan % | Jami                   | O'tgan yilga nisbatan % | Umumiy soniga nisbatan % |
| <b>Sanoat</b>  | 6                      | 300,0                   | 60,0                     | 8                      | 133,3                   | 38,0                     |
| <b>Savdo</b>   | 2                      | 200,0                   | 20,0                     | 5                      | 250                     | 23,8                     |
| <b>Qishloq va o'rmon xo'jaligi</b>                     | 1                      | 100,0                   | 10,0                     | 2                      | 200                     | 9,5                      |
| <b>Qurilish</b>  | 1                      | -                       | 10,0                     | 1                      | 100                     | 4,8                      |
| <b>Tashish va saqlash</b>                              |                        |                         |                          | 1                      | -                       | 4,8                      |
| <b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish</b> |                        |                         |                          | 1                      | -                       | 4,8                      |
| <b>Boshqa turlar</b>                                   |                        |                         |                          | 3                      | -                       | 14,3                     |

**Kichik korxona va mikrofirmalar soni**

2018 yil 1 dekabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 11798 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 dekabr holatiga qaraganda 8,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2874 tasi (24,4 %) Urganch shahriga, 1267 tasi (10,7 %) Urganch tumani, 1254 tasi (10,4 %) Xiva shahri hamda 1219 tasi (10,3 %) Xiva tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eng katta ulushi**

**Urganch shahri**  
**24,4 %**

**Urganch**  
**10,7 %**

**Xiva shahri**  
**10,6 %**

**Xiva**  
**10,3 %**

**Xonqa**  
**7,6 %**

**Yangiariq**  
**6,7 %**

**Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eng kichik ulushi**

**Xazorasp**  
**6,6 %**

**Gurlan**  
**5,7 %**

**Qo'shko'pir**  
**5,6 %**

**Bog'ot**  
**4,6 %**


**Shovot**  
**3,8 %**

**Yangibozor**  
**3,4 %**

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11798 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3509 tasi (29,7 %) – savdoda, 2383 tasi (20,7 %) - sanoatda, 1484 tasi (12,6 %) - qurilishda, 1126 tasi (9,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 855 tasi (7,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 562 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 266 tasi (2,3 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 204 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1409 tasi (12,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo

faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-noyabr holatiga 1853 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 25,8 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Urganch shahrida (495 ta), Urganch (233 ta), Xiva shahrida (170 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (57 ta), Yangiariq (92 ta) hamda Gurlan (92 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (507 ta), sanoatda (415 ta), qurilishda (215 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (205 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (31 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (47 ta), hamda tashish va saqlashda (72 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



### Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 dekabr holatiga 1278 tani tashkil etib, ulardan 1207 tasi yoki 94,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 44,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 28,8 % yoki 348 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 27,9 % yoki 337 tasi sanoat, 20,5 % yoki 248 tasi savdo, 9,0 % yoki 109 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi, 1,6 % yoki 19 tasi qurilish, 1,3 % yoki 13 tasi sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % yoki 12 tasi axborot va aloqa 0,7 % yoki 8 tasi tashish va saqlash, hamda 9,4 % yoki 113 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

## Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoat va yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlashda.

**Statistik registrlarni yuritish bo'lumi**  
**Tel.:62-224-65-11**